



EKSTREMIZM, AQIDAPARASTLIK VA MUTAASSIBLIKNING MAZMUN – MOHIYATI

Navoiy innovatsiyalar universiteti
“Ijtimoiy–gumanitar fanlar” kafedrası
dotsenti **Daminov Nabijon Abduolimovich**

Abstract: *This article discusses the threats to the stability of society posed by such evils as extremism and terrorism in the 21st century.*

Keywords: *terrorism, extremism, fanaticism, fanaticism, fundamentalism, foreigners, Azraqis, pseudo-Salafis, religious extremism, international terrorism, caliphate.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются угрозы стабильности общества, исходящие от таких пороков, как экстремизм и терроризм в XXI веке.*

Ключевые слова: *терроризм, экстремизм, фанатизм, фундаментализм, иностранцы, азракиты, псевдосалафиты, религиозный экстремизм, международный терроризм, халифат.*

Ekstremizm va terrorizm kabi hodisalarning ildizlari uzoq tarixga borib taqalsa-da, XX asrning 90-yillari oxiri va XXI asr boshlaridagdek, ijtimoiy barqarorlik hamda taraqqiyot uchun tahdid solmagan. Zero, hozirda ekstremizm va terrorizm global xarakterga ega bo‘lib, dunyoning barcha mamlakatlari hamda mintaqalariga birdek xavf solmoqda. Shunday ekan, uning oldini olish va unga qarshi kurashish insoniyatning istiqobliga daxldor masalaga aylangandi.

“O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”da bu atamaga quyidagicha tarif berilgan. **Ekstremizm** – lot. Extremus – o‘ta keskin – siyosatda va mafkurada ashaddiy, favqulodda harakat va qarashlarga asoslanib faoliyat yuritish¹. O‘zbekiston

¹ Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 10-жилд. —Т.: Давлат илмий нашриёти, 2005. — Б. 171.



Respublikasi Parlament tomonidan 2018-yil 28 iyulda qabul qilingan “Ekstremizmga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonunning 3-moddasida “**ekstremizm** — ijtimoiy-siyosiy vaziyatni beqarorlashtirishga, O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumini zo‘rluk bilan o‘zgartirishga, hokimiyatni zo‘rluk ishlatib egallashga va uning vakolatlarini o‘zlashtirib olishga, milliy, irqiy, etnik yoki diniy adovat qo‘zg‘atishga qaratilgan harakatlarning ashaddiy shakllari ifodasi”² – deb ta’rif beriladi.

Diniy ekstremizm - avvalo, boshqa konfessiyalarga, ularning vakillariga nisbatan toqatsiz bo‘ladi. Diniy tashkilotlardan dunyoviy davlatga qarshi kurashda foydalanadi. Ekstremizmning turli ko‘rinishlari so‘nggi vaqtlarda dunyoning ko‘p mamlakatlarida, xususan, Yaqin Sharq va Markaziy Osiyo mintaqasida ham o‘zini namoyon eta boshladi. Turli diniy ekstremistik tashkilotlar yangidan mustaqillikni qo‘lga kiritgan dunyoviy davlatlarga tahdid solmoqda. Ular vaqtinchalik qiyinchiliklarni ro‘kach qilib, aholini, ayniqsa, yoshlar ongini aqidaparastlik g‘oyalari bilan zaharlamogda. Farzandlarni yo‘ldan urishga, o‘z ota onasiga, aka - ukasiga, o‘zi tug‘ilib o‘sgan maskaniga, davlatga qarshi qo‘yishga harakat qilinmogda.

Eksterimistik qarashlarni barcha dinlarda, buddizm, xristianlik, islomdagi turli oqimlarda uchratish mumkin. Masalan, mutaxassislar katolik cherkovining erkin fikr yurituvchi, hukmron feodal katolik cherkovi aqidalarini rad etuvchi kishilar – papa hokimiyati dushmanlarini ta’qib qilish uchun XIII asrda tuzilgan va minglab odamlarning qurbon bo‘lishiga olib kelgan inkvizitsiya faoliyatini ham ekstremizmning o‘ziga xos ko‘rinishi sifatida baholaydilar. Masalan, Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusufning “Olam va odam, din va ilm” kitobining “Muqaddas inkvizitsiya” yoxud cherkov tomonidan odamlarning qirib tashlanishi” deb nomlangan sarlavhasida shunday ma’lumot beriladi: “Tarixchilarning hisobiga ko‘ra, Evropadagi inkvizitsiya qurbonlarining soni 10-12 millionga etgan.

² <https://www.lex.uz/acts/3841957>



1000 yilda Evropaning umumiy aholisi 42 millionni tashkil etar edi. Agar buni 7 asrga bo'lib chiqadigan bo'lsak, unda Evropada o'ldirilgan yoki qiynoqxonalarda azoblangan, ya'ni 700 yil ichida yiliga 15000 tadan odam yoki oyiga 1250 tadan odam, kuniga o'rtacha hisobda 41 ta odam yoqib o'ldirilgan. Bu qurbonlarning aksariyati ayollar bo'lgan³. Ammo hozirda islom dini niqobi ostidagi diniy – siyosiy harakatlar a'zolari tomonidan turli jinoyatlar sodir etilayotgani jamiyat xavfsizligiga jiddiy tahdid solmoqda.

Fundamentalizm –(Lot: “asos”) tushunchasining ma'nosi muayyan ijtimoiy hodisaning dastlabki ko'rinishini anglatadi. Keng ma'noda – muayyan ta'limot aqidalarining o'zgarmasligini e'lon qiladigan, e'tiqodni aql dalillaridan ustun qo'yadigan, ilohiy kitoblardagi vahiy qaysi ma'noda bayon etilgan bo'lsa, shu ma'noda qabul qilinishini talab etadigan, ayni vaqtda ularni majoziy ma'noda talqin etishga har qanday urinishlarni rad etadigan, din asoslarini og'ishmay bajarishni qattiq talab qiladigan ijtimoiy, mafkuraviy, diniy yo'nalishlar. Tor ma'noda – protestanizmdagi ortodoksal oqimlar. 1910 - yillarda AQShning janubiy shtatlarida paydo bo'lgan. Ular xristianlikning an'anaviy aqidalariga, ayniqsa Bibliyaning mutlaqo mukammalligiga ishonchni mustahkamlashni, uni so'zma – so'z sharhlashga qat'iy rioya qilishni talab qiladilar. 1919-yilda Filadelfiyada Jahon xristian fundamentalistlari assotsiatsiyasiga asos solindi.

Qayd etish lozimki, “XX asrning 70 - yillaridan boshlab, bu so'z islomga nisbatan qo'llanila boshladi. Bunda “fundamentalizm” atamasi – Qur'on va hadislarni so'zma-so'z talqin etuvchi, ilk islomga qaytishga qaratilgan aqidalarni targ'ib qiluvchi diniy – konservativ ruhdagi yo'nalishga nisbatan ishlatildi. Buning natijasida jahon matbuotlarida islom niqobidagi mutaassib jangarilarni “fundamentalistlar” deb atash ham odat tusiga kirdi”⁴.

³ Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Олам ва одам, дин ва илм. – Т.: “Ҳилол-Нашр”, 2023.-339-б.

⁴ Shermuxamedov K.A, Karimov J.A. Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma'naviy – ma'rifiy asoslari. T.: “O'zbekiston faylasovlar milliy jamiyati”, 2018.- 10 – b.



Islom fundamentalistlari turli yo'nalish va kayfiyatdagi guruhlarini o'z ichiga oladi. Ularning ba'zilar terror usullari bilan qonuniy hokimiyatga qarshi kurashda o'zini namoyon etsa, boshqalari targ'ibot-tashviqot ishlari, diniy ta'lim bilan, turli jamoat tashkilotlari, maktab, ommaviy axborot vositalariga kirib borish, internet orqali o'z g'oyalarini tarqatish bilan shug'ullanadi.

Islom fundamentalistlariga xos bo'lgan g'oyalar – g'arb tovarlarining iste'moliga qarshi kurash, dinsiz yoki “sof islomdan chekingan” davlat rahbarlarini jismonan yo'q qilish, islomda shirkka barham berish bilan borabardir. Islom fundamentalistlari talqinida aziz-avliyolar qabrini e'zozlash ham butparastlikka kiradi. Hozirda islom fundamentalistlarining vakillari butun dunyoga yoyilib, har yerda o'z maslakdoshlarini topishga intilmoqda.

Ta'kidlash lozimki, ekstremizm yoki fundamentalizmni faqat muayyan din bilan bog'lash mutlaqo asossiz. Xususan, islom dini, u bilan bog'liq turmush tarzi va qadriyatlar majmuiyi hech qachon ekstremistik tuzilmalarning go'yo din va musulmon jamoasi ravnaqi yo'lida amalga oshirayotgan terrorchilik xurujlarining asosiy sababi sifatida qaralishi mumkin emas.

Islom shiorlaridan tanlab foydalanadigan, dinning asl mohiyatini buzib talqin qiladigan ekstremistik tuzilmalar xuddi yuqoridagi kabi go'yoki keng xalq ommasi bilan uzviy birlik mavjudligini ko'rsatish aslida esa jamiyatda tartibsizlik va parokandalikni yuzaga keltirish uchun mablag' yig'ish, asosiy tahdid manbai sifatida odamlar ongini egallash, jamiyatda beqarorlik keltirib chiqarish orqali hokimiyatga erishishdek ehtiyojlarini qondirish maqsadini ko'zlaydi.

Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf hazratlari ta'kidlaganidek, “Allohga imon keltirib, U Zotga itoat qilgan va Allohning farishtalariga, payg'ambarlariga, kitoblariga, oxirat kuniga, qazoyi qadarga va talab qilingan boshqa narsalarga imon keltirib, Muhammad sollallohu alayhi vasallamga ergashgan, Islom shariatiga amal qilgan kishi musulmon deyiladi”⁵.

⁵ Шайх Мухаммад Содиқ Мухаммад Юсуф. Олам ва одам, дин ва илм. – Т.: “Хилол-Нашр”, 2023.-28-б.



Hozirgi davrda ko'plab ekstremistik uyushmalar va mutassib harakatlar turli dinlar, shu jumladan, xristianlik, islom, yahudiylik dinlari ta'limotidan foydalanmoqda.

Aqidaparastlik (arabcha – ishonch) -mutassib dindorlar uchun majburiy bo'lgan, ular shak keltirmasdan, muhokama qilmasdan bajarish, e'tiqod qilish lozim, deb hisoblaydilar. Aqidaparastlar - diniy e'tiqod shakllanishining boshlang'ich davrida belgilangan, o'sha zamondagi siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy sharoitlarga mos bo'lgan barcha yo'l -yo'riqlarning qat'iy hamda og'ishmay bajarilishini talab qiladilar va shu tariqa diniy oqimlarni ifodalashda qo'llanadigan islohot shaklini shart qilib qo'yadilar. Islom arkonlarini niqob qilib olgan aqidaparastlarning asosiy g'oyasi "sof islom" qat'iyatlariga qaytish, maqsadi va islomiy davlat joriy etishdan iborat. Aqidaparast guruhlar haqiqatni tushuntirish, ishontirish kabi usullar orqali targ'ib etishni tan olmaydi. Ular o'z g'oyalari bid'atli, g'ayriinsoniy bo'lishga qaramasdan, o'ta johil va boshqalarga nisbatan murossasiz munosabatda bo'ladilar. O'zini shak – shubhasiz haq deb bilish, haqiqatni faqat men bilaman, degan qarashga asoslangan manmanlik esa zo'ravonlikni yuzaga keltiradi.

Mutaassiblik (arab. "chuqur ketish") o'z fikr-mulohaza va dunyoqarashi to'g'riligiga o'ta qattiq ishonib, boshqa diniy e'tiqodlarga murossasiz munosabatda bo'lishni atglatadi. Mutaassiblik barcha davrlarda turli din va yo'nalishlar orasida keskin nizo va to'qnashuvlarni kelib chiqishiga sabab bo'lgan. "Islom ensiklopediya" kitobida esa "mutaassiblik" haqida quyidagilar aytiladi: "Mutaassiblik, fanatizm - o'z e'tiqodi to'g'riligiga o'ta qattiq ishonish, boshqa diniy e'tiqodlarga murossasiz munosabatda bo'lish. Mutaassiblikka yo'liqqan odamlar yoki guruhlar jamiyatda beqarorlikni vujudga keltirishga urinadi. Insoniyat tarixida bunday e'tiqoddan g'arazli maqsadlarda foydalanilgan. Mutaassiblikning paydo bo'lishiga diniy ziddiyatlar, shuningdek, ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy muammolarning hal qilinmagani ham sabab bo'lishi mumkin. Mutaassiblikning asosiy sabablaridan biri diniy ilm - Qur'on, hadis va shariatni bilmaslikdir. Islom dini



mutaassiblikka xayrixohlik bildirmaydi”⁶. Islom dini mutaassiblikni qoralaydi, balki bag‘rikeng bo‘lishga, boshqalarga nisbatan to‘g‘ri bo‘lishga, yaqin bo‘lishga chaqiradi. Bu haqda Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi vasallam shunday marhamat qiladilar: “Albatta din yengildir. Kim dinga qattiq (mutaassib) lik qilsa, albatta (din) uni yengadi. Bas to‘g‘ri bo‘linglar va yaqin bo‘linglar” (Imom Buxoriy rivoyati) “marhamat qiladi”.

⁶ <https://nasafziyo.uz/index.php?newsid=5551>